Mediatsiya, hakamlik muhokamasi va sud orqali nizolarni hal etish usullarining o'zaro nisbati

Toshkent Davlat Yuridik Unversiteti

Advokatlik faoliyati yo’nalishi 1-bosqich magistranti

Kimsanova Mohinabonu

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekistonda nizolarni hal qilishning uch asosiy usuli – mediatsiya, hakamlik muhokamasi va sud jarayonlarini solishtiradi. Maqolada ularning yuridik asoslari, jarayonlari, afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi. O‘zbekistonda 2018-yilda qabul qilingan “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonun mediatsiyani jumladan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan, mijoz va bank (kredit tashkilotlari) o‘rtasidagi munosabatlardan, sug‘urta shartnomasidan yuzaga keladigan munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga, mehnat va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediatsiyani qo‘llash bilan bog‘liq munosabatlarga nisbatan tatbiq etish imkonini berdi, hakamlik sudlarida esa fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolar, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolar hal etiladi. Ammo sud jarayonlari umumiy manfaatlar yoki uchinchi shaxslar huquqlarini o‘z ichiga olgan ishlarda muhim ahamiyatga ega. Maqola mediatsiyaning tezlik, xarajatlar samaradorligi va maxfiylik kabi afzalliklarini ko‘rsatadi, shu bilan birga sudning qonuniy va rasmiy xususiyatlarini ta’kidlaydi. Olimlarning fikrlari va xalqaro tajribalar asosida hakamlik sudlarining, mediatsiyaning O‘zbekiston adliya tizimidagi o‘rni va kelajagi muhokama qilinadi. Maqola oddiy odamlar uchun tushunarli bo‘lib, nizolarni hal qilishda qaysi usulni tanlash haqida yo‘l-yo‘riq beradi.

Kalit so‘zlar: Mediatsiya, hakamlik sudi, sud, nizolarni hal qilish, fuqarolik nizolar, oilaviy nizolar, biznes nizolar, maxfiylik, xarajatlar samaradorligi, vaqt samaradorligi.

The Interrelation Between Mediation, Arbitration, and Judicial Methods of Dispute Resolution

Tashkent State University of Law

Master’s Student (1st Year), Specialization in Advocacy

Burxonova Mohinabonu

Abstract. This article compares three primary methods of dispute resolution in Uzbekistan: mediation, arbitration, and litigation. It analyzes their legal foundations, procedures, advantages, and disadvantages. The Law "On Mediation," adopted in Uzbekistan in 2018, enables the use of mediation for disputes arising from various contexts—including entrepreneurial activities, relationships between clients and banks (or credit institutions), insurance contracts, as well as labor and family law matters. Meanwhile, arbitration tribunals handle disputes arising from civil legal relations, including economic disputes between business entities. Litigation, however, remains essential for cases involving broader public interests or the rights of third parties. The article highlights the benefits of mediation—such as speed, cost-effectiveness, and confidentiality—while also emphasizing the formal, legally binding nature of court proceedings. Based on the views of experts and international experience, this article discusses the role and future of arbitration and mediation within Uzbekistan's justice system. Written in an accessible manner, it provides guidance for the general public on choosing the appropriate method for resolving disputes.

Keywords: Mediation, arbitration, court, dispute resolution, civil disputes, family disputes, business disputes, confidentiality, cost-effectiveness, time efficiency.

Взаимосвязь между медиацией, арбитражем и судебными способами разрешения споров

Ташкентский государственный юридический университет

Магистрант (1-й курс), специализация: «Адвокатура»

Бурхонова Мохинабону

Аннотация. В данной статье проводится сравнение трех основных способов разрешения споров в Узбекистане: медиации, арбитража и судебного разбирательства. Анализируются их правовые основы, процедурные аспекты, а также преимущества и недостатки. Принятый в Узбекистане в 2018 году Закон «О медиации» позволяет применять этот механизм для урегулирования споров, возникающих в различных

сферах: в предпринимательской деятельности, во взаимоотношениях клиентов с банками (или кредитными организациями), в рамках договоров страхования, а также в трудовых и семейных правоотношениях. В свою очередь, арбитражные (третейские) суды рассматривают споры, вытекающие из гражданско-правовых отношений, включая экономические споры между субъектами предпринимательства. Судебное же разбирательство остается необходимым в тех случаях, когда затрагиваются более широкие общественные интересы или права третьих лиц. В статье подчеркиваются такие достоинства медиации, как оперативность, экономичность и конфиденциальность, а также отмечается формально-правовой характер судебного процесса. С опорой на научные подходы и международный опыт рассматриваются роль и перспективы развития арбитража и медиации в системе правосудия Узбекистана. Статья написана в доступной форме и содержит рекомендации для широкого круга читателей по выбору наиболее подходящего способа разрешения споров.

Ключевые слова: медиация, арбитраж, суд, разрешение споров, гражданские споры, семейные споры, коммерческие споры, конфиденциальность, экономичность, оперативность.

Kirish. Hayotda nizolar – odatiy holat. Oilada, ish joyida yoki biznesda kelishmovchiliklar har kimga duch kelishi mumkin. Mamlakatimizda an’anaviy ravishda bunday nizolar sud orqali hal qilingan, bu rasmiy va qonuniy qaror chiqarishning ishonchli usuli hisoblanadi. Biroq, so‘nggi yillarda mediatsiya, hakamlik sudi kabi alternativ nizolarni hal qilish usullari ommalashmoqda. Mediatsiya – bu tomonlarni do‘stona kelishuvga olib keladigan, maxfiy va tezroq jarayon. 2018-yilda O‘zbekistonda qabul qilingan "Mediatsiya to‘g‘risida"gi qonun ushbu usulni rasmiy ravishda joriy etdi, bu esa fuqarolarga sudga murojaat qilmasdan nizolarni hal qilish imkonini berdi. Hakamlik sudlarida esa fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolar, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari

o‘rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolar hal etiladi. [1]Chunki hozirgi kunda tadbirkorlik subyektlari rivojlangani sari ular o’rtasidagi ziddiyatlar va ularning qiymat doirasi ham kengayib bormoqda. Baholanki bu holatda nizo yuzasidan tadbirkorlar katta miqdordagi kapitalini advokat jalb etishga yoki bo’lmasa qarshi tarafning da’vo arizasi qanoatlantirilishi oqibatida katta miqdordagi zarar hamda chiqimlarni to’lashga majbur bo’lmoqda. Ushbu maqola mediatsiya, hakamlik sudlari va sud jarayonlarini solishtirib, ularning afzalliklari, kamchiliklari va qo‘llanilishi haqida umumiy tushuncha beradi. Maqsad – oddiy odamlarga ushbu nizolarni sudgacha bo’lgan bosqichda hal etish tizimi hamda davlat sudlari o’rtasidagi farqlarini tushuntirish va qaysi biri qachon mos kelishini ko‘rsatish.

O‘zbekistonda mediatsiyaning yuridik asosi 2018-yil 3-iyulda qabul qilingan va 2019-yil 1-yanvardan kuchga kirgan "Mediatsiya to‘g‘risida"gi qonun hisoblanadi. Bu qonun mediatsiyani fuqarolik nizolar, shu jumladan tadbirkorlik faoliyati, shaxsiy mehnat nizolari va oilaviy nizolar uchun qo‘llaniladigan usul sifatida belgiladi. Mediatsiya sud tashqarisida, sud jarayonlari davomida, arbitratsiyada va hatto sud qarorlarini ijro etish bosqichida qo‘llanilishi mumkin.[2]

Qonun mediatsiyaning asosiy printsiplarini belgilaydi:

• Maxfiylik: Mediatsiya jarayonidagi ma’lumotlar tomonlarning roziligisiz oshkor qilinmaydi.

• Ixtiyoriylik: Tomonlar o‘z xohishlari bilan ishtirok etadilar.

• Hamkorlik va teng huquqlilik: Mediator tomonlarni teng huquqli ravishda kelishuvga yo‘naltiradi.

• Mustaqillik va xolislik: Mediator neytral bo‘lib, hech bir tomonni qo‘llamaydi.

Mediatsiya instituti nizoni sudgacha bo’lgan bosqichda taraflarning ixtiyoriy roziligi bilan qo’llaniladi. Bu institutning davlat sudlaridan bir qator qulay bo’lgan tomonlari

[1] https://lex.uz/uz/acts/-1072079 .
[2] https://lex.uz/uz/docs/-3805227 .

mavjud. Birinchidan, bu institut mustaqil bo’lganligi sababli nizoni hal etishda taraflar va mediator ishtirok etib, o’z huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun erkin fikr bildirib harakat qilishadi. Mediator esa taraflarning talablarini qonun doirasida baholab o’z tavsiyalarini ularga taqdim etadi. Qonun doirasida belgilangan bu tavsiyalar yuzasidan taraflar o’zaro rozi bo’lsalargina mediativ kelishuv imzolanishi mumkin. Bu fikrlarimizga huquqiy asos sifatida "Mediatsiya to‘g‘risida"gi qonunning 8-moddasi, mediatsiya tartib-taomili nizo xususida taraflarning hamkorligi asosida o‘zaro maqbul qarorga erishish maqsadida amalga oshiriladi. Bundan tashqari mediativ kelishuv tuzish erkinligi yuqoridagi qonuning 29-moddasida ko’rsatilgan unga ko’ra, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish natijalari bo‘yicha taraflar kelib chiqqan nizo yoxud majburiyatlarni bajarish shartlari va muddatlari xususida o‘zaro maqbul qarorga erishgan taqdirda, taraflar o‘rtasida yozma shaklda mediativ kelishuv tuziladi.

Ikkinchidan, mediatsiya jarayonidagi maxfiylik ham taraflar uchun eng katta yordamlardan biri sanaladi. Chunki oilaviy, mehnatga oid nizolar hal etilayotganda taraflar bu nizolar ommaga ma’lum qilinishini oilaviy sir, ishchanlik obro’si nuqtayi nazaridan hohlashmaydi. Shuning uchun ham mediatsiyada maxfiylik prinsipiga alohida e’tibor qaratilgan. Buning huquqiy asosi sifatida yuqoridagi qonunning 6-moddasini ko’rishimiz mumkin, mediatsiya ishtirokchilari mediatsiya jarayonida o‘zlariga ma’lum bo‘lib qolgan ma’lumotlarni ularni taqdim etgan mediatsiya tarafining, uning huquqiy vorisining yoki vakilining yozma roziligisiz oshkor qilishga haqli emas. Mediatsiya ishtirokchilari o‘zlariga mediatsiya jarayonida ma’lum bo‘lib qolgan holatlar haqida guvoh sifatida so‘roq qilinishi mumkin emas, shuningdek ulardan mediatsiyaga taalluqli axborotni talab qilib olish mumkin emas, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Hakamlik sudlari asosan tadbirkorlik subyektlari bilan bog’liq bo’lgan nizoni hal etishda eng samarali usullardan biri sanaladi. Bu institutning davlat sudlaridan bir qator ustun jihatlari mavjud. Birinchidan, taraflarda sudyani tanlash imkoniyati mavjud. Ya’ni taraflar o’z hohishiga ko’ra fikrlarini erkin, bosimlarsiz ifoda eta oladigan sudyani tanlay olishadi. Bu o’z navbatida sud jarayonida o’z huquq va majburiyatlarini to’laqonli amalga

oshirishlarida eng samarali yo’llardan biri sanaladi. Bundan tashqari bilamizki davlat sudlariga da’vo arizasi bilan murojaat qilinganda “Davlat boji” to’g’risidagi qonun ilovasiga davlat bojining stavkalari keltirilgan. Bular quyidagilar:

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga beriladigan:		
	a) mulkiy xususiyatga ega da’vo arizalaridan	da’vo bahosining 4 foizi miqdorida, biroq BHMning 1 baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda
Iqtisodiy sudlarga beriladigan:		
	a) mulkiy xususiyatga ega da’vo arizalaridan	da’vo bahosining 2 foizi miqdorida, biroq BHMning 1 baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda
	b) nomulkiy xususiyatga ega da’vo arizalaridan	BHMning 10 baravari
	v) to‘lovga qobiliyatsizlik haqida ish qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi arizalardan	BHMning 3 baravari
	g) xo‘jalik shartnomalarini tuzish, o‘zgartirish yoki bekor qilish vaqtida kelib chiquvchi nizolar bo‘yicha da’vo arizalaridan	BHMning 10 baravari

[3]

Lekin hakamlik sudlarida esa barcha nizolar uchun bir xil stavkada bo’lmasdan, da’voning murakkabligiga qarab belgilanib, davlat sudlariga beriladigan davlat bojidan ko’ra kamroq miqdorni tashkil etadi. Ortriqcha advokat jalb etish uchun ham to’lovlar shart bo’lmasdan hakamlik sudi sudyalari ikki tarafning manfaatlarini hisobga olgan holda qonun doirasida nizoni hal etishadi. Bu o’z navbatida hozirgi kunda fuqarolarga hamda tadbirkorlarimizga berilayotgan bir imkoniyat sifatida baholashimiz mumkin.

[3] https://lex.uz/docs/-4680944

Nizoni hakamlik sudida hal qilish bilan bog‘liq xarajatlar tarkibi

Nizoni hakamlik sudida hal qilish bilan bog‘liq xarajatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

hakamlik sudyalarining gonorari;

hakamlik muhokamasini tashkiliy, moddiy jihatdan va boshqacha tarzda ta’minlash xarajatlari;

hakamlik sudyalarining hakamlik muhokamasida ishtirok etishi bilan bog‘liq xarajatlari, shu jumladan nizoni ko‘rib chiqish joyiga borib kelish uchun to‘lanadigan yo‘l haqi xarajatlari;

hakamlik sudyalarining ashyoviy, yozma va raqamli dalillarni mazkur dalillar turgan joyda ko‘zdan kechirish hamda tekshirish bilan bog‘liq xarajatlari;

ekspertlar va tarjimonlarga to‘lanishi lozim bo‘lgan summalar;

guvohlar tomonidan sarflangan xarajatlar;

hakamlik sudining hal qiluv qarori taraflardan qaysi birining foydasiga chiqarilgan bo‘lsa, o‘sha taraf vakilining xizmatlari haqini to‘lash xarajatlari;

hakamlik sudi tomonidan belgilanadigan boshqa xarajatlar.

Agar hakamlik muhokamasi taraflarining ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan xarajatlarni qilishi hakamlik muhokamasi qoidalarida belgilanmagan bo‘lsa, bunday xarajatlar hakamlik sudi xarajatlari tarkibiga kiritiladi.

Hakamlik sudyalari gonorarining miqdori

Hakamlik sudyalari gonorarining miqdori da’voning bahosi, nizoning murakkabligi, hakamlik sudyalari hakamlik muhokamasi uchun sarflagan vaqt va gonorar miqdoriga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa holatlar hisobga olingan holda belgilanadi.[4]

[4] https://lex.uz/uz/acts/-1072079 .

Nizolarni hal etishning muqobil usullari, xususan, mediatsiya va hakamlik muhokamasi zamonaviy huquqiy tizimda muhim o‘rin egallashiga qaramay, davlat sudlari o‘zining huquqiy maqomi, vakolatlari va protsessual imkoniyatlari bilan alohida ustunliklarga ega.

Birinchidan, davlat sudlarining eng muhim ustunligi ularning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomga ega ekanligidir. Sud hokimiyati mustaqil hokimiyat tarmog‘i sifatida faoliyat yuritadi hamda fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning asosiy kafolati hisoblanadi. Mediatsiyada nizoning yechimi taraflarning o‘zaro kelishuviga bog‘liq bo‘lsa, hakamlik muhokamasida vakolat arbitraj bitimi va taraflarning roziligi bilan chegaralanadi. Davlat sudlari esa qonunda belgilangan yurisdiksiya doirasida nizolarni taraflarning xohish-istagidan qat’i nazar ko‘rib chiqish vakolatiga ega.

Ikkinchidan, davlat sudlari qarorlarining majburiyligi va ijro etilishi mexanizmi muhim ustunlik hisoblanadi. Sud hujjatlari qonuniy kuchga kirgach, tegishli tartibda majburiy ijro etiladi. Bu esa qaror ijrosidan bo‘yin tovlash holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, davlat sudlarida ishlarni ko‘rish jarayonida qonuniylik, oshkoralik, tortishuv va taraflarning teng huquqliligi kabi muhim protsessual prinsiplar ta'minlanadi. Shuningdek, sud qarorlaridan yuqori instansiyalarga shikoyat qilish imkoniyati mavjudligi qonuniylik ustidan qo‘shimcha nazoratni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, davlat sudlari voyaga yetmaganlar, muomalaga layoqatsiz shaxslar, jamoat manfaatlari va uchinchi shaxslarning huquqlari bilan bog‘liq nizolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, nizolarni hal etishning mediatsiya, hakamlik sudlari va davlat sudlari kabi mexanizmlari zamonaviy huquqiy tizimning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Har bir mexanizm o‘zining huquqiy tabiati, qo‘llanilish doirasi, protsessual xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklariga ega. Shu sababli nizoni hal etishda muayyan usulni tanlash taraflarning manfaatlari, nizoning xususiyati, moddiy qiymati hamda kutilayotgan huquqiy natijaga qarab amalga oshirilishi lozim.

Mediatsiya, eng avvalo, taraflar o‘rtasidagi munosabatlarni saqlab qolish, o‘zaro manfaatli kelishuvga erishish va nizoni ortiqcha vaqt hamda moliyaviy xarajatlar kamligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, uzoq muddatli hamkorlikka asoslangan tadbirkorlik munosabatlarida mediatsiyadan foydalanish kelgusidagi iqtisodiy aloqalarni davom ettirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Biroq uning natijadorligi taraflarning ixtiyoriy ishtiroki va murosaga kelishga tayyorligiga bevosita bog‘liq.

Hakamlik sudlari esa taraflarga nizoni davlat sudlariga murojaat qilmasdan, mustaqil hakamlar ishtirokida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Ushbu mexanizm, ayniqsa, shartnomaviy va iqtisodiy nizolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, hakamlik muhokamasining qo‘llanilishi nizoning hakamlik sudiga taalluqliligi va taraflarning tegishli kelishuvi mavjudligiga bog‘liq.

Davlat sudlari esa odil sudlovni amalga oshirish, buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarni tiklash hamda qonuniy kuchga ega sud hujjatlarini qabul qilishning asosiy institutsional mexanizmi bo‘lib qoladi. Ayniqsa, taraflar o‘rtasida kelishuvga erishish imkoni bo‘lmagan yoki nizoni majburiy huquqiy tartibda hal etish zarur bo‘lgan holatlarda sud himoyasi muhim ahamiyatga ega.

Demak, nizolarni hal etishning mazkur mexanizmlarini bir-biriga muqobil raqib sifatida emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi huquqiy vositalar sifatida baholash maqsadga muvofiq. Ularning samarali qo‘llanilishi huquqiy madaniyatni yuksaltirish, tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, sudlar faoliyatidagi ortiqcha yuklamani kamaytirish va jamiyatda huquqiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – 2023-yil 30-aprel kuni referendum orqali qabul qilingan. https://lex.uz .

2. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyuldagi O‘RQ-482-sonli «Mediatsiya to‘g‘risida»gi Qonuni. – https://lex.uz/uz/docs/-3805227 .

3. O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 16-oktabrdagi O‘RQ-64-sonli «Hakamlik sudlari to‘g‘risida»gi Qonuni. – https://lex.uz/uz/acts/-1072079 .

4. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi O‘RQ-703-sonli «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonuni. – https://lex.uz/uz/acts/-5534923 .

5. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. – 2018-yil 22-yanvar, O‘RQ-460-son. – https://lex.uz .

6. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi. – 2018-yil 24-yanvar, O‘RQ-461-son. – https://lex.uz .

7. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat boji to‘g‘risida»gi Qonuni. – https://lex.uz/docs/-4680944

II. Xalqaro huquqiy hujjatlar

8. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risidagi UNCITRAL namunaviy qonuni (1985-yil, 2006-yildagi o‘zgartirishlar bilan).

9. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro tijorat mediatsiyasi natijasida tuzilgan xalqaro kelishuv bitimlari to‘g‘risidagi Singapur konvensiyasi (2019-yil).

10. BMTning Xalqaro savdo huquqi bo‘yicha komissiyasi (UNCITRAL). Xalqaro tijorat arbitraji va mediatsiyaga oid hujjatlar. – https://uncitral.un.org .